


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



«KELISHILGAN»
Axborot texnologiyalari fakulteti
dekani H.I.Eshankulov
«01 «02 2024 y.



«TASDIQLAYMAN»
O'quv ishlari bo'yicha
prorektor R.G.Jumayev
«02 «02 2024 y.

**5330100- Kompyuter ilmlari va dasturlash
texnologiyalari ta'lim yo'nalishi bitiruvchi
talabalariga ixtisoslik fanlardan Yakuniy davlat
attestatsiyasi imtihon**
DASTURI

3.00. Ixtisoslik fanlari:

Fanlar ro'yxati:

1. Berilganlar bazasi.
2. Web dasturlash

Dastur Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasida muhokama
qilingan va tavsiya etilgan (2024 yil 31 yanvar 23-bayonnomma)

Dastur Buxoro universitetining Ilmiy kengashida ko‘rib chiqilgan va tasdiqlangan.
(2024 yil “01“ fevraldagi 6– sonli bayonnomma)

Tuzuvchilar: f.-m.f.n.dots. O.I.Jalolov
p.f.f.d.(PhD). F.X. Xazratov
f.-m.f.f.d.(PhD) U.N. Xayriyev

Taqrizchilar: p.f.f.d.(PhD). N.N. Zaripov
f.-m.f.n.dots. Sh.S.Yo’ldoshev

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2021 yil 16 noyabrdagi № 1963-3 son bilan ro'yxatga olingan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021 yil 10 noyabrdagi № 38-2021-sen buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida NIZOM"ga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi № 38-2021-senli buyrug`iga muvofiq ishlab chiqildi.

Muqaddima

I. Umumiy qoidalar

II. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari

III. Yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tarkibi

IV. Yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi

V. Yakuniy qoidalar

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga muvofiq oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestastiyasini o'tkazish tartibini belgilaydi.

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestastiyasi bakalavriat yo'naliishlari va magistratura mutaxassisliklari o'quv jarayoni jadvaliga muvofiq o'tkaziladi.

2. Yakuniy davlat attestastiyasi oliy ta'lim muassasasidagi har bir ta'lim yo'naliishi (mutaxassisligi) bo'yicha tashkil etiladigan yakuniy davlat attestastiyasi komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

3. Yakuniy davlat attestastiyasi komissiyalarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

bitiruvchining bilim, malaka va ko'nikma darajasining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq kelishini kompleks baholash;

yakuniy davlat attestastiyasi natijalari bo'yicha bitiruvchilarga bakalavr (magistr) akademik darajasini berish masalasini hal qilish;

komissiya faoliyati natijalarini tahlil qilish va ular asosida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

4. Yakuniy davlat attestastiyasi komissiyalari o'z faoliyatlarini mazkur Nizom hamda bakalavriat ta'lim yo'naliishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasi va ta'lim mazmuniga qo'yilgan Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga yo'naltirilgan boshqa hujjatlarga tayangan holda olib boradilar.

II. YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI SINOVLARI

5. Yakuniy davlat attestastiyasi ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) o'quv rejalariga muvofiq quyidagi turlardagi attestastiya sinovlaridan iborat:

xorijiy til bo'yicha yakuniy davlat attestastiya sinovi (oliy ta'lim muassasasi Kengashi qaroriga asosan o'tkazilishi mumkin);

ta'lim yo'nalishi bo'yicha fanlararo (majburiy fanlar) yakuniy davlat attestastiya sinovi;

diplom loyihasi himoyasi;

bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertasiyasi) himoyasi.

6. Xorijiy til bo'yicha yakuniy davlat attestastiysi sinovi mazkur fanning davlat ta'lim standartida belgilangan zaruriy mazmunidan kelib chiqqan holda o'quv dasturida nazarda tutilgan materiallarni talaba tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

7. Ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha fanlararo yakuniy davlat attestastiya sinovi fanlar mazmuniga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda, talaba tayyorlarligining mazkur ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik) bo'yicha malaka talablarida bitiruvchiga nisbatan nazarda tutilgan umumiy talablarga ham javob bera olish darajasini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

8. Yakuniy davlat attestastiyasini majburiy fanlardan (fanlararo) yakuniy davlat attestastiya sinovi yoki diplom loyihasi himoyasi yoxud bitiruv malakaviy ishi (magistrlik dissertasiyasi) himoyasi shaklida o'tkazilishi bitiruvchilarning iqtidori, xohishi va ta'lim xususiyatidan kelib chiqqan holda oliy ta'lim muassasasi Kengashi qarori bilan belgilanadi.

Yakuniy davlat attestastiyasiga oliy ta'lim muassasasi Kengashi qaroriga asosan xorijiy til bo'yicha yakuniy davlat attestastiya sinovi qo'shimcha sifatida kiritilishi mumkin.

Oliy ta'lim muassasasi Kengashining qarori bilan bitiruvchi uchun belgilangan yakuniy davlat attestastiyasining shakli bir o'quv yili davomida o'zgartirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Yakuniy davlat attestastiysi sinovlari o'quv jarayoni jadvalida ko'rsatilgan muddatlarda fakultet dekani yoki o'quv-uslubiy bo'lim (boshqarma) tomonidan tayyorlangan, oliy ta'lim muassasasi o'quv ishlari bo'yicha prorektori tomonidan tasdiqlangan Yakuniy davlat attestastiysi sinovlari jadvali asosida o'tkaziladi.

9. Oliy ta'lim muassasalari tomonidan tajribali professor-o'qituvchilarni jalg etgan holda yakuniy davlat attestastiysi sinovlarining dasturlari va baholash mezonlari ishlab chiqiladi hamda oliy ta'lim muassasasi Kengashi tomonidan tasdiqlanadi va yakuniy davlat attestastiysi boshlanishidan kamida uch oy oldin talabalar e'tiboriga yetkaziladi.

III. YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYA KOMISSIYALARI TARKIBI

10. Yakuniy davlat attestasiyasi komissiyalari raisligiga nomzodlar kafedra mudiri tomonidan tasdiqlash uchun oliy ta'lim muassasasi rektoriga (filial direktoriga) taqdim etiladi.

11. Yakuniy davlat attestasiyasi komissiyasi raislari oliy ta'lim muassasasining idoraviy mansubligidan qat'i nazar, ushbu ta'lim muassasasida faoliyat yuritmayotgan olimlar, ishlab chiqarishning tajribali mutaxassislaridan tegishli oliy ta'lim muassasasi rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan bir yil (kalendor yil) muddatga tasdiqlanadi.

Bir kishi ketma-ket bir oliy ta'lim muassasasida tegishli yo'naliш (mutaxassislik) bo'yicha ikki martadan ortiq yakuniy davlat attestasiyasi komissiyasining raisi bo'lishi mumkin emas.

12. Yakuniy davlat attestasiyasi komissiyasi raislari rahbarligida oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) bilan birligida xorijiy til bo'yicha yakuniy davlat attestasiya sinovi (oliy ta'lim muassasasi Kengashi qaroriga asosan) va (yoki) ta'lim yo'naliш (mutaxassislik) bo'yicha fanlararo yakuniy davlat attestasiya sinovi va diplom loyihasi yoki bitiruv malakaviy ishi (magistrlik dissertasiyasi) himoyasi yoki majburiy fanlardan yakuniy davlat attestasiya sinovini o'tkazish bo'yicha yakuniy davlat attestasiyasi komissiyalari tarkibi shakllantiriladi.

13. Yakuniy davlat attestasiyasi komissiyalari tarkibi mutaxassis tayyorlovchi oliy ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik kadrlari (attestasiya komissiyasi umumiy tarkibining 50 foizigacha), shuningdek mazkur soha kadrlarining iste'molchilari bo'lgan korxona, tashkilot va muassasalarining yuqori malakali mutaxassislar, turdosh oliy ta'lim muassasalarining etakchi professor-o'qituvchi va ilmiy xodimlari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimidagi tegishli soha olimlaridan iborat bo'ladi.

14. Yakuniy davlat attestasiya komissiyalari tarkibi kamida 5 nafar professor-o'qituvchi va mutaxassislardan shakllantiriladi. Yakuniy davlat attestasiyasida vasiylik kengashi va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakillari, bitiruvchilarining ota-onalari yoki ularning qonuniy vakillari hamda kadrlar buyurtmachilari jamoatchilik asosida kuzatuvchi sifatida qatnashishi mumkin.

Yakuniy davlat attestasiya sinovlari jarayoni onlayn rejimda ovozli videotranslyastiya qilinadi hamda ushbu video tasvirlar 1 yil davomida mutaxassislik kafedrasida saqlanadi.

15. Yakuniy davlat attestastiya sinovlari bo'yicha yakuniy davlat attestastiysi komissiyalarining tarkibi oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) tomonidan bitiruv semestri boshlanishidan bir oy oldin tasdiqlanadi.

Zaruriyat bo'lganda attestastiya sinovlarining biri bo'yicha bitta rais rahbarligida bir nechta yakuniy davlat attestastiya komissiyalari tuzilishi mumkin.

Yakuniy davlat attestastiysi jarayonida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish Davlat inspekstiyasi vakillari ishtirok etishlari mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarining davlat attestastiysidan o'tmagan yo'naliш va mutaxassislik bitiruvchilarining yakuniy davlat attestastiysi ushbu oliy ta'lim muassasasining yuqori turuvchi vazirlig (idora) tomonidan tashkil etiladigan davlat attestastiya komissiyasi tomonidan o'tkaziladi.

IV. YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASINI O'TKAZISH TARTIBI

16. Yakuniy davlat attestastiysi sinovlari boshlanishidan oldin yakuniy davlat attestastiya komissiyasi raislari bilan oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) shaxsan yakuniy davlat attestastiysi komissiyalarining tayyorgarlik darajasi, komissiya raislari va a'zolarining vazifalari, bitiruvchilarga qo'yilayotgan talablar, tartib-intizom to'g'risida yig'ilish o'tkazadi.

17. Yakuniy davlat attestastiysi sinovlari yozma, test yoki og'zaki usulda tashkil etiladi va ushbu tartib oliy ta'lim muassasasi Kengashi qarori asosida ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) tomonidan belgilanadi hamda yakuniy davlat attestastiysi boshlanishidan uch oy oldin talabalar e'tiboriga yetkaziladi. Talabalar sinov o'tkaziladigan fanlar dasturlari bilan ta'minlanadilar, ularga tayyorgarlik ko'rish va maslahatlar berish uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

18. Yakuniy davlat attestastiysiga tegishli o'quv reja va fan dasturlarini to'liq tugatgan va o'quv rejasida nazarda tutilgan barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan talabalar qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari tegishli ta'lim dasturlarini to'liq o'zlashtirgandan keyin yakuniy davlat attestastiysidan o'tishlari majburiydir.

19. Yakuniy davlat attestastiysi sinovlari va diplom loyihasi yoki bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertastiysi) himoyasi yoxud majburiy fanlardan yakuniy davlat attestastiya sinovi yakuniy davlat attestastiya komissiyalarining ochiq majlislarida, a'zolarning kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan holda, rais ishtirok etmagan taqdirda rais o'rinosari raisligida o'tkaziladi.

Diplom loyihasi yoki bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertastiysi) himoyasi yoxud majburiy fanlardan yakuniy davlat attestastiya

sinovi ishlab chiqarish bazasida tashkil etilgan kafedra filiallarida sohaning etakchi mutaxassislarini jalb etgan holda o'tkazilishi mumkin.

Yakuniy davlat attestasiyasiga kiritilgan barcha turdag'i attestasiya sinovlari bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimiga muvofiq aniqlanadi hamda yakuniy davlat attestasiyasini komissiyasining majlis bayoni rasmiylashtirilgandan so'ng shu kunning o'zida e'lon qilinadi.

Yakuniy davlat attestasiyasiga kiritilgan barcha turdag'i attestasiya sinovlari mualliflikni o'zlashtirishga (plagiatga) yo'l qo'yilmaydi. Bunday holat aniqlanganda davlat attestasiya komissiyasi tomonidan bitiruvchiga tegishli attestasiya sinovidan qoniqarsiz baho qo'yiladi yoki qo'yilgan ijobjiy baho bekor qilinadi.

20. Yakuniy davlat attestasiya komissiyasi bitiruvchilarning yakuniy davlat attestasiyasini sinovlari natijalari asosida ularga ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha bakalavr (magistr) darajasi berish haqida qaror qabul qiladi.

Yakuniy davlat attestasiya komissiyalarining qarorlari ochiq ovoz berish yo'li bilan, majlisda ishtirok etuvchilarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan holda, raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

21. Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi yakuniy davlat attestasiyasini tarkibiga kiritilgan yakuniy davlat attestasiya sinovidan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng unga muvofiq darajadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom va uning ilovasi beriladi.

22. Fanlar dasturlarini o'zlashtirishda katta yutuqlarga erishgan va o'quv rejasidagi barcha fanlarning kamida 3/4 qismi bo'yicha 86 ball va undan yuqori (5 baholik tizimda 5 baho (a'lo) o'zlashtirish ko'rsatkichlariga erishgan, (boshqa fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 71 balldan (5 baholik tizimda o'zlashtirish ko'rsatkichi 4 bahodan (yaxshi) kam bo'lмаган), shuningdek, yakuniy davlat attestasiyasini sinovlari bo'yicha kamida 86 ball (5 baholik tizimda 5 baho (a'lo) o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ega bo'lgan bakalavriat bitiruvchisiga "imtiyozli" diplom beriladi.

23. Yakuniy davlat attestasiyasini sinovidan o'ta olmagan shaxs o'qish muddati tugagandan so'ng, arizasiga muvofiq yakuniy davlat attestasiyasini sinovini keyingi 3 yil davomida qayta topshirish huquqiga ega.

Yakuniy davlat attestasiyasini sinovidan o'ta olmagan shaxs keyingi o'quv yili boshlanganidan keyin yakuniy davlat attestasiya sinovini qayta topshirishga ruxsat berishni so'rab oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) nomiga ariza bilan murojaat qilishi mumkin. Bunda, shaxsga yakuniy davlat attestasiya sinovini keyingi har bir o'quv yilida (3 yil davomida) 2 martadan ortiq qayta topshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Yakuniy davlat attestastiya sinovini qayta topshirishga ruxsat berish oliv ta'lim muassasasi rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

24. Yakuniy davlat attestastiysi sinovidan keyingi 3 yil davomida qayta o'ta olmagan talabaga akademik ma'lumotnomalar beriladi va u o'rnatilgan tartibda, to'lov-kontrakt asosida tegishli bitiruv kursiga o'qish uchun qayta tiklanishi mumkin.

26. Uzrli sabab bilan yakuniy davlat attestastiysi sinovlariga kelmagan talabalar rektorning buyrug'i bilan yakuniy davlat attestastiya komissiyasining ishi yakunlanishiga qadar boshqa muddatlarda o'tkaziladigan yakuniy davlat attestastiysi sinovlariga kiritilishi mumkin.

27. Yakuniy davlat attestastiysi sinovlarida olgan bahosiga e'tiroz bildirgan bitiruvchilarining arizalarini ko'rib chiqish uchun oliy ta'lim muassasasi rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan apellyastiya komissiyasi tuziladi.

Apellyastiya komissiyasi oliy ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik kadrlari (apellyastiya komissiyasi umumiy tarkibining 40 foizigacha), shuningdek tegishli sohaning malakali mutaxassislari, turdosh oliy ta'lim muassasalarining tajribali professor-o'qituvchi va ilmiy xodimlari orasidan kamida 5 kishidan iborat tarkibda shakllantiriladi.

Apellyastiya komissiyasi tarkibiga joriy yilda yakuniy davlat attestastiysi komissiyasi ishida ishtiroy etgan shaxslarning kiritilishi taqiqlanadi.

28. Yakuniy davlat attestastiysi jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lган bitiruvchilar yakuniy davlat attestastiysi baholari e'lon qilingan kundan e'tiboran uch kun muddat ichida apellyastiya komissiyasiga murojaat qilish huquqiga egadirlar.

29. Apellyastiya komissiyasi o'z xulosasini bitiruvchiga bir kun muddat ichida ma'lum qilishi lozim.

30. Yakuniy davlat attestastiysi komissiyasining ishi bo'yicha yillik hisobot oliy ta'lim muassasasi Ilmiy kengashida ko'rib chiqiladi. Mazkur Ilmiy kengashga yakuniy davlat attestastiysi komissiyalari raislari taklif qilinadi.

V. YAKUNIY QOIDALAR

31. Mazkur Nizomda belgilangan qoidalar bo'yicha nizolar qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

32. Ushbu Nizom O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi, "O'zbekiston temir yo'llari" DAK, Davlat soliq qo'mitasi, Badiiy akademiya, Navoiy kon-metallurgiya kombinati, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi bilan kelishilgan.

"O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2009 yil, 23-son, 267-modda.

1. “BERILGANLAR BAZASI” fanidan Davlat attestatsiya sinovi uchun dastur

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Hozirgi kunda kompyuter texnologiyalari kirib bormagan birorta ham shahar yoki aholi punktlari qolmagan. Davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan AKT sohasini rivojlantirishga bo'lgan diqqat-e'tibor sababli Respublikamizdag'i turli sohalarda faoliyat yuritadigan tashkilot va korxonalar o'z axborot tizimlariga egalar. Bunday tizimlar turli sohaga tegishli bo'lgan berilganlarni saqlash, ular ustida turli amallarni bajarish va uzatish imkonini beradi. So'nggi 10 yillikka kelib, ish unumdoorligini oshirish, vaqtni maksimal darajada tejash, mijozning talabini tez va sifatli bajarish maqsadida berilganlar bazasining boshqarish hozirgi kunda eng qulay tizimlardan biriga aylandi. Berilganlar bazasini boshqarish tizimlari fanini o'qitish davrida talabalarga berilganlar bazasini relyasion modelini yaratish, berilganlar bazasini normallashtirish, kalitlar bilan ishlash, jadvallarni bog'lash, SQL so'rovlar tili va Microsoft SQL Server muhitidan foydalanishga alohida e'tibor qaratiladi.

Talabalarning "berilganlar bazasini boshqarish tizimlari" fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullardan foydalanish, yangi informasiyon - pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, electron materiallar, virtual stendlar hamda zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalaniladi. Ma'ruza va amaliy darslarda mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalaniladi.

O'quv dastur 5130200 - "Amaliy matematika va informatika" yo'nalishi bakalavrлари tomonidan "berilganlar bazasini boshqarish tizimlari" fanini bilishi va ko'nikmalariga minimal talablarini qo'yadi, o'quv darslari turi va mazmunini aniqlaydi.

Berilganlar bazasini boshqarish tizimlarini o'qitish ma'ruza, amaliy mashg'ulot va mustaqil ta'lim shaklida olib boriladi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

"Berilganlar bazasini boshqarish tizimlari" fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr berilganlar bazalarini yaratish zaruriyatini keltirib chiqaruvchi shartlar, hozirgi zamonda berilganlarni qayta ishslash tizimlari va taraqqiyotni shu yo'nalishda rivoji, berilganlar va bilimlarni tasvirlash bilan bog'liq muammolar, berilganlarning mantiqiy modelini yaratish, mavjud axborot-qidiruv tizimlari, berilganlar bazasini boshqarish tizimlari amal qilish haqida tassavurga ega bo'lishi, predmet sohani tavsiflashning funksional-yo'naltirilgan va ob'ektga yo'naltirilgan tavsifini, berilganlar oqimlarining diagrammalarini, berilganlarni sinflarga ajratish tizimlari, berilganlar turlarini,

berilganlarni ifodalash modellarini, berilganlar bazalarining dasturlash tillarini bilishi va ulardan foydalana olishi, berilganlar bazalarining zamonaviy dasturlash tillaridan foydalanish, konkret berilganlar bazalarini tegishli dasturlash uskunalarini yordamida yaratish, dastur mahsulotlari, berilganlar modellarini tahlili, klassifikasiyasi va uni yaratishda zamonaviy talablarni inobatga olish, berilganlarni qayta ishslash tizimlarini yaratishda mavjud berilganlar bazasini boshqarish tizimlaridan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Fanni o'qitishning maqsadi - talabalarda berilganlar bazasini boshqarish tizimlarining nazariy asoslari haqida mos bilim, ko'nikma va malakasini shakllantirish.

Fanni o'qitishning vazifasi - talabalarga zamonaviy dasturlash texnologiyalari asosida berilganlar bazasini boshqarish tizimlarini yaratishni o'rgatishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. **Talaba:**

- berilganlarning turlari, berilganlar bazasi modellari, relyatsion bog'lanishlar, kalitlar, tranzaktsiya, kursor va triggerlar haqida **tassavurga ega bo'lishi**;

- berilganlarning relyasion modeli, jadvallar, normal formalar, SQL so'rovlarni **bilishi va ulardan foydalana olishi**;

- berilganlarning relyatsion modelini tuzish, jadvallarni bog'lash va normallashtirish, SQL so'rovlari yaratish, SQL Server da ishslash, berilganlar bazasini boshqarish tizimlarini loyihalash va dasturiy ta'minotini yaratish **ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak**.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1. Kirish.

Berilganlar bazasini boshqarish tizimlari faniga kirish. Berilganlar bazasini boshqarish. Tranzaktsiya. Kursor. Saqlovchi proseduralar va triggerlar.

2. Berilganlar bazasi arxitekturasi.

Berilganlar bazasini relyatsion modeli. Bog'lanishlar va attributlar.

3. Normal formalar.

Berilganlar bazasini normallashtirish (birinchi, ikkinchi va uchinchi normal forma). Ko'p qiymatli bog'lanishlar.

4. Berilganlar bazasi bilan ishslash imkoniyatini beruvchi texnologiyalar.

Microsoft Access 2010 dasturi va uning imkoniyatlari, SQL so'rovlari tiliga kirish. SQL da ma'lumotlarning tiplari.

5. SQL so'rovlari tili sintaksisi.

Ma'lumotlar bazasi va jadvallar yaratish hamda o'chirish operatorlari. SELECT operatori strukturasi. SQL agregat funktsiyalari. WHERE, LIKE, AND

va OR operatorlari. Saralash operatorlari. IN, BETWEEN, ALL, SOME, ANY, EXISTS operatorlari tasnifi. Ma'lumotlarni tartiblash operatorlari. Jadvallar ustida amallar. (INSERT, UPDATE). Kalitlar bilan ishslash. Jadvallarni bog'lash. Jadvaldagi maydonlar ustida amallar. EXCEPT, INTERSECT, VIEW operatorlari.

IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Microsoft SQL serverni - ishga tushirish va BB ochish. Yangi BB yaratish. Yangi BB berilganlarni kiritish usulida yaratish.
2. SQL Serverning ishchi muhiti. Ishchi muhit oynalari. Menyu va uskunalar majmuasi. BB oynasi. Ma'lumotnoma va undan foydalanish.
3. Jadvallar bilan ishslash. Yangi jadvalni konstruktor yordamida yaratish.
4. Yangi jadvalni berilganlarni kiritish usulida yaratish. Kalitli maydonlarni aniqlash. Indekslarni yaratish va ulardan foydalanish.
5. Berilganlar chizmasida jadvallarni bog'lash. Berilganlar butunligini qo'llab-quvvatlash.
6. Berilganlarni kiritish va tekshirish. Jadval bo'yicha yo'naltirish. Berilganlarni saralash, izlash va filtrlash.
7. Boshqa formatdagи berilganlardan foydalanish. BB formatlari. Boshqa formatdagи jadvallarni birlashtirish va import qilish.
8. Berilganlarni boshqa formatlarga eksport qilish.
9. Oddiy so'rovlarni yaratish.
10. So'rovni bajarish va o'zgartirish. So'rov natijalarini chop etish va boshqa ilovalarga uzatish.
11. So'rovlardan ifodalardan foydalanish usullari. Arifmetik, mantiqiy va boshqa operatorlar.
12. O'zgarmaslar. Funktsiyalar. Ifoda. Tuzuvchi yordamida ifodalarni yaratish.
13. Murakkab so'rovlarni yaratish. Bir nechta jadval va so'rovlardan berilganlarni tanlash usullari.
14. So'rov yordamida jadvallarni yaratish. Berilganlarni qo'shish uchun so'rov tuzish. Jadvallarni yangilash uchun so'rov tuzish. Yozuvlarni yo'qotish uchun so'rov tuzish.
15. So'rovlardan ifodalarni tahlil qilish. Kesishma so'rovlardan ifodalarni tahlil qilish.
16. SQL so'rovlarni tuzish. So'rovlardan ifodalarni tahlil qilishda SQL yo'rinqomalaridan foydalanish.
17. Berilganlarni kiritish uchun shakllar yaratish. Master yordamida shakl yaratish. Shakllar bilan ishslash uslublari. Konstruktor uslubi.
18. Shakllar bilan ishslash parametrlari. Boshqarishning asosiy elementlari. Boshqarish elementlarini yaratish va yo'qotish.
19. Shakl va uning elementlarini sozlash. Shakl uslublari.
20. Yozuvlarni qo'shish va o'zgartirish.

21. Tarkibli shakllarni yaratish. Joylangan boshqarish elementlari bilan ishlash.
22. Ko'p jadvalli shakllarni yaratish. Ko'p sahifali shakllarni yaratish.
23. Shakllarda hisoblashlarni amalga oshirish. Shakllarda statistic funktsiyalardan foydalanish.
24. Enterprise Manager programmasida berilganlar bazasi xabari bilan ishlash.
25. Mijoz ilovalarini yaratish.

Adabiyotlar

1. Carlos CoroneI yend Steven Morris. Database Systems: Design. Implementation, and Management, Eleventh Edition. 2015. (Cengage Learning 786 p.
2. Top Ten Largest Databases in the World," Business Intelligence Lowdown, February 15.2007.
3. Кириллов В.В., Громов Г.Ю. Структуризованный язык запросов (SQL). Учебное пособие. Санкт-Петербургский ГТУ, 2004, Электрон шакл.
4. Гурвиц Г.А. Microsoft Access 2010. Разработка приложений на реальном примере. - СПб.: БХВ-Петербург, 2010., 496 с.
5. Тахагхогхи Сейед, Вильямс Хью Е. Руководство по MySQL / Пер. с англ.- М.: Издательство «Русская редакция» ; 2007., 544 с.
6. Семенова И.И. Разработка клиент-серверных приложений с использованием технологий Oracle:Учебно-методическое пособие.Омск: Изд-во СибАДИ, 2008.,108 с.
7. Урман С. Программирование на языке PL/SQL. Пер. с англ. - М.: Лори, 2004, 528 с.

Internet saytlar

11. <http://www.ziyonet.uz>
12. <http://www.nuu.uz>
13. <http://www.intuit.ru>
14. <http://www.wikipedia.org>

2. “WEB DASTURLASH” fanidan Davlat attestatsiya sinovi uchun dastur O‘quv fanining dolzarbliji va oliy kasbiy ta’limdagi o‘rni KIRISH

Ushbu dastur O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni hamda “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ga muvofiq ishlab chiqildi.

Hozirgi kunda kompyuter texnologiyalari, internet kirib bormagan birorta ham shahar yoki aholi punktlari qolmagan. Davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan AKT sohasini rivojlantirishga bo’lgan diqqat – e’tibor sababli Respublikamizda internet xizmati hajmi, internetdan foylalanuvchilar soni, xalqaro kanallarga chiqish tezligi yildan – yilga o’sib bormoqda. Web-dasturlash tillariga va texnologiyalariga qiziqish kuchayib bormoqda. Yosh dasturchilar Web -loyihalarni amalga oshirish uchun HTML, CSS, JavaScript, JQuery, JQuery UI kabilardan foydalananadilar. So’nggi 10 yillikka kelib, ish unumdarligini oshirish, vaqt ni maksimal darajada tejash, loyihaning xavfsizligini oshirish, mijozning talabini tez va sifatli bajarish maqsadida Web-dasturlash sohasida CMS va freymwork lar tadbiq qilinmoqda.

“WEB DASTURLASH” fani ixtisoslik fani hisoblanadi va o‘quv yilining 8-semestrida o’qitiladi. Fanni o’qitish ma’ruza, amaliy mashg’uloti va mustaqil ta’lim shaklida olib boriladi. Har tomonlama shakllangan, ma’naviyatli shaxsni tarbiyalab etishtirishda, uning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o’ynovchi kompyuter grafikasi va dizayn va amaliy matematika va informatika sohalari uchun mutaxassislik va pedagog kadrlar tayyorlovchi “51302000 – Amaliy matematika va informatika” ta’lim yo’nalishlari uchun zamonaviy WEB DASTURLASH fanining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

Har bir fanni o’rganish uni maqsadlariga bog’liq. Bu fan talabalarning Internet asoslari, hozirda keng tarqalgan va ommalashgan Web tizimlarni tahlil qilish, ulardan foydalana olish, Web tizimlarni yaratishda dasturlash tilini to’g’ri tanlay bilish, dasturlash tillaridan samarali foydalanish malakalariga ega bo’lish, Web tizimlarni loyihalashtirishning zamonaviy usullari va vositalari, Web tizimlarni yaratish texnologiyalari va tizimlari, ma’lumotlar bazasidagi ma’lumotlarni himoyalash usullari, veb texnologiyalari va ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlari integrastiyasini bilishlari uchun vosita bo’lib xizmat qiladi.

Fanning maqsadi va vazifalari

“WEB DASTURLASH” fanning maqsadi talabalarga HTML, CSS, JavaScript, JQuery, JQuery UI yordamida Web dasturlashning zamonaviy usullarini o’rgatish va Web tizimlarni loyihalash va ishlab chiqish bo’yicha nazariy va amaliy bilimlarni berishdan iborat.

Fanning vazifasi esa talabalarda HTML, CSS, JavaScript, JQuery, JQuery UI va ularning zamonaviy asoslarini o'rgatish va ular asosida Web dasturlarni ishlab chiqish, loyihalash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning tasavvur, bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

Talabalar mazkur fanni o'zlashtirish natijasida:

HTML, CSS, Java Script, JQuery, JQuery, Jquery UI asoslari, imkoniyatlari *haqida tasavvurga ega bo'lishlari;*

HTML, CSS, Java Script, JQuery, JQuery, Jquery UI larning zamonaviy asoslarini va usullarini *bilishi* hamda Web dasturlarni loyihalash va ishlab chiqishda samarali *foydalana olishlari;*

masalaning qo'yilishiga qarab yangi Web loyihalarni ishlab chiqish hamda o'quv va ishlab chiqarish jarayoniga tadbiq *etish ko'nikmasiga ega bo'lishlari lozim.*

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jixatdan uzviyligi

“WEB DASTURLASH” fanini o'zlashtirish quyidagi fanlardan etarli bilim va ko'nikmalarni talab qiladi: «Dasturlash asoslari», «Ob'ektga yo'naltirilgan dasturlash», «Dasturlash texnologiyasi», «Algoritmlar va berilganlar strukturasii», «Kompyuter grafikasi va dizaynning maxsus effektlari», «Kompyuter tarmoqlari», «Animastion texnologiyalar», «Berilganlar bazasini bashqarish tizimlari». Bundan tashqari o'quvchi talabalar biror bir dasturlash tilida dastur yaratish tajribasiga ega deb qaraladi.

Mazkur fan bo'yicha olingan bilim va ko'nikmalar “Web dizayn”, “Kompyuter grafikasi va Web dizayn” fanlarini o'rganishda hamda kurs va bitiruv ishlarini tayyorlashda katta yordam beradi.

Fanning ilm-fan va ishlab chiqarishdagi o'rni

“WEB DASTURLASH” fani yordamida yangi zamonaviy Web loyihalarni ishlab chiqish, tadbiq etish bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalari natijasida axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun lozim bo'ladigan dasturiy majmua va ta'minotlarni samarali, rastional va sifatli loyihalash va ishlab chiqishda ishtiroy etishi mumkin.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning “WEB DASTURLASH” fanini o'zlashtirishlari uchun, o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan hamda yangi pedagogik, informastion texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

O'quv fanini talab darajasida o'zlashtirish uchun uni o'qitish jarayonida o'qitishning interfaol usullaridan; kichik guruhlarda ishlash, aqliy xujum, muammoli o'qitish hamda jumboq usullar kabi innovastion metodlardan foydalanib talabalarning erkin va mustaqil ishlashini samarali tashkil etish maqsadida ularga qo'yilgan o'quv vazifalarini mustaqil bajarishni tashkil etish maqsadida axborot texnologiyalari hamda axborot ta'lif muhitidan foydalanish ko'zda tutiladi.

Fanni o'zlashtirishda darslik, internet va intranet tarmoqlari, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, videoma'ruzalar, tarqatma materiallar, elektron ma'ruzalar, elektron qo'llanmalardan foydalaniladi.

ASOSIY QISM

Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

Web dasturlashning asosiy tushunchasi

Web dasturlash asosiy tushunchalari. HTML hujjat tarkibiy qismlari. Teg tushunchasi. Matn bilan ishlash. Blokli va satrli belgilash elementlari. Ro'yxatlar. Jadvallar. Grafika va multimedia. Freymlar va murojaatlar. Formalar bilan ishlash. HTML5 imkoniyatlari

Stillar bilan ishlash

Stillar. Asosiy tushunchalar va aniqlanishlar. Still bayonini hujjatga joylashtirish. CSS da ma'lumotlar tiplari. Selektorlar. Sinflar. Element va fon rangi. Shrift. Matn va o'tish effektlari. CSS yordamida qatlamlar yaratish. Chegaralar va ramkalar. Psevdosinflar va psevdoelementlar. Media stillar

Skriptlar bilan ishlash

JavaScript ning asosiy tushunchalari: xossalari, metodlar, hodisalar. JavaScript da ma'lumot tiplari, o'zgaruvchilar, ob'ektlar, ifodalar, arifmetik amallar. JavaScript da jarayonlarni boshqarish elementlari (shartli va stikl operatorlari). JavaScript da massivlar, funkstiyalar bilan ishlash. JavaScript da hodisalar. Interaktiv formalar ishlab chiqish. JavaScript ob'ektlari.

Skriptlar. JavaScript tili sintaksisi. HTML-hujjatga JavaScript ni ularish. Ma'lumotlar tiplari, literallar. JavaScript da o'zgaruvchidan foydalanish. JavaScript tilining ifodalari va amallari. JavaScript operatorlari va funkstiyalari. Massivlar va obektlar. JavaScript tilida hodisalar tizimi. JavaScript tilida grafika va animastiya. JavaScript kutubxonalari

JavaScript kutubxonalari

JQuery texnologiyasi. JQuery kutubxonasiga bog'lanish va uni qo'llash usullari. JQuery da sahifa elementlarini boshqarish. JQuery orqali effektlar va animastiyalar.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.
2. М. Aripov., S. Dottoyev., M. Fayziyeva. Web texnologiyalari. Toshkent 2013yil. -280 bet.
3. M.E. Mamarajabov., S.Q. Tursunov., L.M. Nabiulina. Kompyuter grafikasi va web dizayn. Toshkent 2013 yil. -376 bet.
4. Зокирова Т.А., Машарипов А.К., Иброҳимов Э.У., Мусаева М.А. Web дастурлаш. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2006. – 175 б.
5. Зокирова Т.А., Иброҳимов Э.У., Машарипов А.К., Мусаева М.А. Web дастурлаш. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2010. – 184 б
6. Robin Nixon. Learning PHP, MySQL&JavaScript width jQuery, CSS & HTML5, 4th Edition. O'Reilly Media. United States of America. 2015.
7. Лебедев С В. Web-дизайн. Учеб.пос. Москва, ЗАО «Издательский дом Альянс пресс», 2004.
8. Jamsil K. Lalani, S. S. Weekly Programming Web professionals Trans. from English. A.I.Panasyuk - Mn. LLC "Potpourri", 1997. - 632 p.: Ill.

9. Malchuk E.V. HTML and CSS. self-teacher

Qo'shimcha adabiyotlar:

- 10.У. Юлдашев, М.Мамаражабов, С.Турсунов. Педагогик Web дизайн. Ўқув қўлланма.Т: “Voris”, 2013
- 11.V.G.Olifer, N.A.Olifer. Computer networks. Principles, technologies, protocols. St. Petersburg: Publishing House. "Peter," in 2000.
12. R. Darnell, "JavaScript: Handbook." - St. Petersburg: Publishing House. "Peter," in 1998.
13. Dmitriev M. JavaScript. Quick start. - St. Petersburg.: BHV St. Pereburg, 2002.

Internet saytlar:

1. <http://www.intuit.ru>
2. <http://etuit.uz/>
3. www.tuit.uz
4. www.ziyonet.uz

5330100- Kompyuter ilmlari va dasturlash texnologiyalari ta’lim yo’nalishi bitiruvchi talabalariga ixtisoslik fanlardan Yakuniy davlat attestatsiyasi imtihon savollari.

1. Berilganlar bazasi fanidan YDA uchun savollar bazasi

1. Berilgan masalani loyihalash uchun Jadvallarni o`zaro bog`lash.
2. MOni yaratish bosqichlarini aytib bering.
3. Kompyuterda MOni yaratish bosqichlarini tavsiflab bering.
4. Berilganlar Bazasi bilan Excell ni kitobini farqlari, imkoniyatlari, yutuqlari, kamchiliklari.
5. Berilganlar bazasini boshqarish tizimlarini vazifasi, imkoniyati haqida ma`lumot bering.
6. Birlamchi kalit (primary key) haqida toliq ma`lumot bering
7. Jadvallarni o`zaro bog`lash haqida toliq ma`lumot bering
8. Jadvalni tiplari haqida toliq ma`lumot bering
9. Ko`pga – ko`p bog`lash haqida ma`lumot bering. misollar bilan yoriting
10. Ma`lumotlarni iyerarxik modeli haqida toliq ma`lumot bering
11. Ma`lumotlarni relyatsion modeli haqida toliq ma`lumot bering
12. Ma`lumotlarni tarmoqli modeli haqida toliq ma`lumot bering
13. Talaba va fakultet jarayonini loyihalang.
14. Universitetda kompyuterlar ro`yxatini yuritish ma`lumotlar bazasini loyihalang.
15. Kutubxona faoliyat tizimini yuritish ma`lumotlar bazasini loyihalang.
16. Teatr chipta olish jarayonini yuritish ma`lumotlar bazasini loyihalang.
17. MS accesda jadval yaratish haqida ma`lumot bering.
18. Mashinalar parkidagi mashinalar ro`yxati ma`lumotlar bazasini loyihalang.
19. Universitet o`quv jarayonini ma`lumotlar bazasini loyihalang.
20. Davomat ma`lumotlar bazasini loyihalang.
21. Relyatsion ma`lumotlar bazasini asosiy tushunchalari haqida toliq ma`lumot bering
22. Munosobat xossalari haqida toliq ma`lumot bering
23. Munosobatlar sxemasi haqida toliq ma`lumot bering
24. Predmet soha deganda nimani tushunasiz va misollar keltring.
25. Ma`lumotlar bazasiga qo`yiladigan talablarni tavsiflab bering.
26. Ma`lumotlar bazasi va ma`lumotlar bazasini boshqarish tizimlariga haqida toliq ma`lumot bering.
27. Ierarxik, tarmoqli va relatsion ma`lumotlar bazalarini tavsiflang.

- 28.Relatsion ma'lumotlar bazasi jadvallari elementlari: maydon, yacheyka, yozuv, kortejga ta'rif bering.
- 29.Relatsion ma'lumotlar bazasi jadvalini normallashtirish (me'yorlashtirish) turlari va jarayonlari nimadan iborat?
- 30.Ma'lumotlar bazasi jadvalining qaysi beshta normal formalarini bilasiz?
- 31.Ma'lumotlar bazasi jadvallari orasidagi quyida keltirilgan bog'lanishlarni ta'riflang: «birga bir», «birga ko'p» «ko'pga ko'p».
- 32.Ma'lumotlarning axborot modelida axborot tizimlarining qaysi bosqichi tavsiflari (model turlari) ko'zda tutilgan?
- 33.SQL So`rov haqida batafsil malumot bering.
- 34.**delete from talabax where nomi BETWEEN 'A' AND 'M'** sql so`rovi haqida batafsil malumot bering.
- 35.Ikkilamchi kalit (unikey), Indekslash (index) , birlamchi kalit, tashqi kalit haqida toliq ma'lumot bering
- 36.Inner Join, Outer Join haqida toliq ma'lumot bering. Misollar bilan yoriting.
- 37.**INSERT INTO talaba (famil, ism, tyili, kurs) VALUES ('Xayatov', 'Akrom', '1998-06-23', 3)** sql so`rovi haqida batafsil malumot bering.
- 38.Insert into talabaX select name, family from talaba sql so`rovi haqida batafsil malumot bering.
- 39.Jadvallarni o`zaro bog`lash haqida toliq ma'lumot bering
- 40.Jadvalni tiplari haqida toliq ma'lumot bering
- 41.Ma'lumotlarni iyerarxik, relyatsion, tarmoqli modeli haqida ma'lumot bering.
- 42.**SELECT * FROM talaba WHERE manzil='Toshkent' ORDER BY name DESC;** sql so`rovi haqida batafsil malumot bering.
- 43.**SELECT * FROM talaba where name LIKE 'L%vich';** -sql so`rovi haqida batafsil malumot bering.
- 44.**SELECT AVG(oyliklar.maosh) AS [AVG-maosh] FROM oyliklar;** - sql so`rovi haqida batafsil malumot bering.
- 45.**SELECT COUNT (*) FROM talaba;** -sql so`rovi haqida batafsil malumot bering.
- 46.**SELECT g.name, t.name FROM guruuh as g INNER JOIN talaba as t ON (t.guruuh=g.id);** So`rovi haqida batafsil malumot bering.
- 47.**SELECT g.name, t.name FROM guruuh as g LEFT JOIN talaba as t ON (t.guruuh=g.id);** So`rovi haqida batafsil malumot bering.
- 48.**SELECT g.name, t.name FROM guruuh as g RIGHT JOIN talaba as t ON (t.guruuh=g.id);** So`rov haqida batafsil malumot bering.
- 49.**SELECT id, famil, ism, tyili, kurs INTO talabaX FROM talaba;**
So`rov haqida batafsil malumot bering.

50. **SELECT MAX(oyliklar.maosh) AS [MAX-maosh] FROM oyliklar;**
So`rov haqida batafsil malumot bering.
51. **SELECT MIN(oyliklar.maosh) AS [MIN-maosh] FROM oyliklar;**
So`rov haqida batafsil malumot bering.
52. «Xodimlar» relatsion ma'lumotlar omborining mantiqiy tuzilmasi loyihalang va bog`lanishlarni hosil qiling
53. SQL tilida Satr va matematik funktsiyalarni misollar bilan tushuntiring
54. MS Sql Serverda maydon tiplari haqida ma'lumot bering
55. SQL tilida Mantiqiy amallarni misollar bilan tushuntiring
56. SQL tili predikatlar (Like, Between, In, Is (Not) Null haqida ma'lumot bering
57. SQL da Aggregat funktsiyalar haqida ma'lumot bering
58. «AvtoSalon» relatsion ma'lumotlar omborining mantiqiy tuzilmasi loyihalang va bog`lanishlarni hosil qiling
59. Maydonda birlamchi va tashqi kalitni o`rnini tavsiflab bering
60. Kollej yoki litseyda ish haqi to'lanishi haqidagi ma'lumotlarni saqlovchi ma'lumotlar bazasini tuzing.
61. SQL da ma'lumotlarni saralash(Select) va tartiblash amallariga misollar keltiring
62. Birga – bir(1:1), Birga – ko‘p(1:n), Ko‘pga – bir(n:1) , Ko‘pga – ko‘p (m: n) munosabatlarning har birini misollar bilan tushuntiring
63. «Maktab » relatsion ma'lumotlar omborining mantiqiy tuzilmasi loyihalang va bog`lanishlarni hosil qiling
64. «Apteka » relatsion ma'lumotlar omborining mantiqiy tuzilmasi loyihalang va bog`lanishlarni hosil qiling
65. 1, 2 – normal forma haqida toliq ma'lumot bering
66. SQL tilida Sana va Vaqt funktsiyalarni misollar bilan tushuntiring
67. «Poliklinika» relatsion ma'lumotlar omborining mantiqiy tuzilmasi loyihalang va bog`lanishlarni hosil qiling
68. MB da mohiyat-aloqa munosabatlarini izohlang
69. Ma'lumotlar bazasini loyihalash bosqichlarini izohlab o`ting
70. SQL da Order by, Group by operatorlarini misollar yordamida yoriting
71. Birlamchi(Primary key) va Tashqi kalit (forigen key) haqida toliq ma'lumot bering
72. **SELECT * FROM talaba where name LIKE 'L%' and fio LIKE "%vich";**
So`rov haqida batafsil malumot bering.
73. T-SQL da ustunlarni guruhash haqida ma'lumot bering misollar yordamida tushuntiring
74. Jadvallarni o`zaro bog`lash haqida toliq ma'lumot bering

75.SQL da ma`lumot qo`shish(Insert) turlari uchun so`rovlar yaratish haqida ma`lumot bering. Misollar bilan yoriting.

2. Web dasturlash fanidan YDA uchun savollar bazasi

1.	Web sahifa haqida ma`lumot bering
2.	Web sahifa hosil qiling. Berilgan matn ustida sichqoncha kelganda uning rangi kulrang bo`lsin
3.	HTML da DOM tushunchasi.
4.	Web sahifalarda qatlam (sloy) lar bilan ishslash
5.	<A> tegi undagi atributlar haqida ma`lumot keltiring. Har bir atributidan foydalanish uchun misol. Ssilka tegi va uning parametrlari haqida ma`lumot bering
6.	Ro`yxat elementi teglari haqida to`liq ma`lumot keltiring (sonli, belgili).
7.	Web sahifalarda foydalilaniladigan teglar. Hujjatning tuzilishi
8.	Web sahifaning forma obyektlari haqida ma`lumot bering
9.	Frameset va frame tegi va uning parametrlari haqida ma`lumot bering
10.	IFRAME tegi va uning parametrlari haqida ma`lumot bering
11.	TABLE tegi va uning parametrlari haqida ma`lumot bering
12.	Matnni formatlash teglari va ularni atributlari haqida malumotlar keltiring. IMG tegi va uning parametrlari haqida ma`lumot bering
13.	Web brouzerlar haqida malumot bering. Ularning farqlari, imkoniyatlarni keltiring.
14.	Web sahifada ichki oyna jolashtiring. Uning o`lchami 100px Balandligi, kengligi 200px va ichki oyna haqida ma`lumot bering.
15.	Web sahifa uchun foydalilaniladigan hollatlar. Bularga misollar keltiring.
16.	Forma elementlari uchun foydalilaniladigan hollatlar. Bularga misollar keltiring.
17.	SPAN, Layer va DIV teglari haqida to`liq ma`lumot bering. Bu teglarga kamida 4 ta misol keltiring.
18.	Web muharirlar haqida malumot bering. Ularning farqlari, imkoniyatlarni keltiring.
19.	map tegi va uni parametrlari, u bilan ishlaydigan taglar haqida to`liq ma`lumot bering. Unga kamida 4 ta misol keltiring
20.	Ko`p oynali Web sahifa yaratish haqida to`liq ma`lumot bering
21.	HR, BR, FONT, P, B, I, Sub, Sup teglari va uni atributlari haqida to`liq ma`lumot bering
22.	Web sahifaga ishlatiladigan forma obyektlari (tugma, tanlagich,...) haqida ma`lumot bering
23.	Web sahifaga grafika va multimedia obyektlari va undan foydalanish
24.	HTML da Forma elementlarida legend va fieldset teglaridan foydalanish va uning imkoniyatlari
25.	HTML da sahifada swf, mp4, avi, mp3, midi fayllardan foydalanish
26.	Sahifani <Body>, <HEAD> tegi va uning atributlari haqida ma`lumot keltiring
27.	SELECT tegi va unda foydlaniladigan qo`shimcha teglari, uning atributlari
28.	Bog`langan (tashqi) stillar bilan ishslash va unga kamida 5 xil misol keltiring
29.	CSS haqida to`liq ma`lumot bering. Web sahifalarda Stillar bilan ishslash
30.	CSS da chegara xususiyatlari va uni barcha imkoniyatlari
31.	CSS da forma elementi text qo`ying, uning dizaynnini css orqali o`zgartiring
32.	CSS orqali HTML DOM obyektlarini joylashishini, tashqi va ichki bo`shliqlardan foydalanish.
33.	CSS orqali jadvalga stillar berish (TH, TD, ...)
34.	CSS orqali P yoki Div tegiga cursor kelsa, sichqoncha cursori rasmini almashtirsin va

	P yoki Div o`lchami 2 baravar katalashsin.
35.	CSS orqali rasmni aytilgan burchakka burish va rasm ustida qo`shimcha buyruqlar.
36.	Umumiy stillar bilan ishlash va unga kamida 5 xil misol keltiring
37.	Web sahifa hosil qiling. Berilgan matn ustida sichqoncha kelganda uning rangi kulrang bo`lsin
38.	Web sahifaga *.css kengaytmali fayllardan foydalanish. Misollar bilan.
39.	Web sahifaga tugma qo`ying va u tugmada still bering.
40.	Xususiy stillar bilan ishlash va unga kamida 5 xil misol keltiring
41.	CSS orqali forma va uning elementlari joylashishi va ko`rinishini o`zgartirish
42.	CSS orqali elementni joylashishishi xususiyatlari (bottom, left, position, right, top, z-index)
43.	CSS orqali elementning foniga beriladigan xususiyatlar, matn rangi xususiyati
44.	CSS orqali rasm, matnga, sohaga soya berish
45.	Berilgan ikki son orasidagi bo`lgan mukammal sonlar ro`yxatini jadvalda chiqaruvchi Web sahifa hosil qiling (JavaScript da)
46.	Berilgan sonni raqamlari yig`indisini topadigan Web sahifa hosil qiling (JavaScript da)
47.	Berilgan ikkita sonni orasidagi fibonanchi sonlar ro`yxatini jadvalda chiqaruvchi Web sahifa hosil qiling (JavaScript da)
48.	Berilgan ikkita sonning orasidagi toq sonlarni ro`yxatini chiqaruvchi Web sahifa hosil qiling (JavaScript da)
49.	Berilgan ikkita sonning umumiy bo`luvchilarini Web sahifaga ro`yxat shaklida chiqaradigan Web sahifa tuzing (JavaScript da)
50.	Berilgan sonni bo`luvchilari ro`yxatini jadvalda chiqaruvchi Web sahifa hosil qiling (JavaScript da)
51.	To`rtburchak tomonlari berilganda uning perimetri va yuzasini topadiga Web sahifa hosil qiling (JavaScript da)
52.	Tugma bosilganda yozuvini o`zgartiradigan Web sahifa hosil qiling (JavaScript da)
53.	Java Scriptda funktsiyalar va ularni tuzilishlari haqida malumotlar keltiring
54.	Java Scriptdagи shart ,tanlash, ternar operatori (to`liq va qisqa ko`rinishlari)
55.	Java Scriptdagи takrorlash operatorlar (barcha ko`rinishlari)
56.	JavaScript da o`zgaruvchi, massivlardan foydalanish va uni Web sahifaga qo`llash
57.	JavaScript da prompt, alert, confirm buyruqlari va uni Web sahifaga qo`llash
58.	JavaScript ni takrorlashida break va continue buyruqlari va uni Web sahifaga qo`llash
59.	Web sahifalarda scriptlar o`rnatish (yozish) haqida to`liq ma`lumot bering
60.	JavaScript da rekursiv funktsiyalar yaratish haqida ma`lumot bering. 4 xil misol asosida.
61.	HTML sahiffani abzatsda kursov kelganda fon rangi sariq kursov ketganda esa fon rangi oq bo`lishini JQuery yordamida bajaring
62.	HTML elementlariga JQuery orqali hodisalarini ulash, uzish
63.	HTML forma orqali, tugma bosilganda Web sahifa yopilsin. (JavaScript da)
64.	HTML forma orqali, tugma bosilganda, ikkinchi formaga nechta forma elementi borligini hisoblab aytsin. (JQuery da)
65.	JQuery orqali effektlar va animatsiyalardan foydalanish
66.	PHP da cookie bilan ishlash.
67.	PHP da sessiyalardan foydalanish.
68.	PHP da funktsiyalar, local, global va static o`zgaruvchilar.
69.	PHP da funktsiyalarni parametrlarini aniqlash va u parameter elementlari bilan ishlash.
70.	PHP orqali fayllarni serverga yuklash uchun foydalaniladigan buyruqlar va uning tasnifi. Web serverda upload ni yoqish, yuklanadiga fayl hajmini ko`rsatish
71.	PHP da funktsiyalar yaratish va undan foydalanish

72.	PHP da fayllar bilan ishash
73.	Ko`rsatilgan fayldagi matnni HTML formani TEXTAREA elementiga o`qish. PHP da HTML forma asosida.
74.	PHP da arifmetik, mantiqiy, bitli operatorlar. Taqqoslash amallari.
75.	PHP da element bo`yicha takrorlash operatori haqida ma`lumot bering.
76.	PHP da o`zgaruvchilar, massivlardan foydalanish.
77.	PHP da sahifani forma ma`limotlarini boshqa sahifaga yuborish va o`qib olish.
78.	PHP da sahifani formalaridagi ma`lumotlarni bilan ishslash.
79.	PHP da satrlar bilasni ishlaydigan funktsiyalar, matematik funktsiyalar bilan ishslash haqida ma`lumot bering. Misollar asosida.
80.	PHP da shart va ternar operatorlaridan foydalanish.
81.	PHP da switch buyrug`idan foydalanish.
82.	PHP da takrorlash operatorlarida break, continue dan foydalanish.
83.	PHP get global massividan foydalanish. Forma elementlarini qiymatini get metodi orqali yuborish va o`qish.
84.	PHP haqida tushuncha bering. Uning tarixi.
85.	PHP sahifalarida malumotlarni bir sahifadan ikkinchi sahifaga yuborish yullari.
86.	PHP tilida o`zgaruvchi va o`zgarmaslar, ifodalar va operatorlar.
87.	PHP tilining sintaksisi va berilganlar tipi tiplari. Tiplarni tekshirish funktsiyalari
88.	PHP da takrorlash operatori haqida ma`lumot bering.

BAHOLASH MEZONI

Har bir variantda 1ta fandan 1ta nazariy va 1ta amaliy savol beriladi.

1 ta variantda jami 4 ta savol beriladi.

<p>Yozma ish uchun 4 tadan savol tuziladi va har bir savolga “0” balldan “25” ballgacha baholanadi.</p>	<p>20-25-ball</p> <p>Talaba berilgan yozma ishdagi 4 ta savolning har birini mohiyatini tushunishi, bilishi, tasavvurga ega bo`lishi lozim. Uni ilmiy asoslagan holda ijodiy fikrlab, mustaqil mushohada yuritib, imloviy xatosiz yoritib berishi hamda shu sovollarda berilgan ma'lumotlarni taqqoslay olishi, xulosa va qarorlar chiqargan holda, amalda qo`llay bilihi kerak. Talaba 4 ta savolga ham shu mezon asosida javob bergan bo`lsa, yozma ishga maksimal 100 ball (4x25 ball) qo`yiladi. Talabaning fan bo`yicha o`zlashtirish ko`rsatgichini nazorat qilishda quyidagi namunaviy mezonlar tavsiya etiladi (har bir savol uchun):</p> <p>20-25 ball uchun talabaning bilim darajasi qo`yidagilarga javob berishi lozim:</p> <p>xulosa va qaror qabul qilish: ijodiy fikrlay olish; mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarni amalda qo`llay olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo`lish.</p>	<p>Umumiyl ball - 100 ball</p> <p>86-100-ball. A`lo, (86-100 %).</p>
	<p>15-20 ball</p> <p>Talaba berilgan yozma ishdagi 4 ta savol to`g`risida bilim va tasavvurga ega bo`lishi lozim. Savolni mohiyatini tushgungan holda mustaqil mushohada yuritib, savol mazmunini yoritib berishi kerak. Berilgan ilmiy ma'lumotlarni o`zaro taqqoshga qiynaladi, xulosalar yakuniga yetmagan. Talaba 4 ta savolga ham shu mezon asosida javob bergan bo`lsa, yozma ishga 20 ball (5x4 ball) qo`yiladi. 15-20-ball ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim;</p> <ul style="list-style-type: none"> • mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo`llay olish; • mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bulish. 	<p>71-85-ball. yaxshi (71-85 %).</p>

	10-15 ball	Talaba yozma ishdagi 4 ta savolni mohiyatini tushunishi, tasavvurga ega bo'lishi, qisman bilishi hisobga olinadi. Ilmiy ma'lumotlar qisman yozilgan, bu ma'lumotlar asosida mustaqil fikr va xulosalar yurita olmaydi. Talaba 4 ta savolga ham shu mezon asosida javob bergan bo'lsa, yozma ishga 15 ball qo'yiladi. 10-15-ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim; <ul style="list-style-type: none"> mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish. 	55-70-ball. Qoniqarli, (55-70 %)
	5-10-ball	Talaba 4-ta savolning mohiyatini qisman tushunsa, ilmiy ma'lumotlarni yozishda xatoliklarga yo'l qo'ysa. Mustaqil fikr va xulosalar yoritilmagan bo'lsa, yozma ishga jami 10 ball qo'yiladi.	
	0-5 ball	Talaba 4-ta savolni mohiyatini tushunmasa, ilmiy ma'lumotlarni bayon etishda qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yilsa, ma'lumotlar asosida mustaqil fikr yurita olmasa, yozma ishga jami 5 ball qo'yiladi.	

Kafedra mudiri:

dots. O.I.Jalolov